



## О`ZBEKISTON-KOREYA: ISLOHOT VA O`ZGARISHLARDAGI YANGI QADAMLAR, MANFAATLI HAMKORLIK, DIPLOMATIK ALOQALAR

Xo`jamqulova Shaxnoza Sherboy qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyot: nemis tili

Surxondaryo, O`zbekiston

Tel: (+998) 880751215,

E-mail: [shaxnozaxojamqulova47@gmail.com](mailto:shaxnozaxojamqulova47@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O`zbekiston va Koreya o`rtasidagi diplomatic aloqaar va hamkorliklarning rivojlanishini ko`rib chiqilgan. Koreya Respublikasi Prezidentlarining O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan va uning e`tirof etilganidan keyin unga nisbatan olib borilgan tashqi siyosatini, bundan tashqari ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishini o`rgangan ekspertlarning fikrlari va mulohazalarini, rivojlanishing keyingi manzarasi bo`yicha qilgan tahminlari haqida fikr yuritilgan.

**추상적인.** 이 글은 우즈베키스탄과 한국의 외교관계 발전과 협력에 대해 살펴본 것이다. 우즈베키스탄 독립 이후 대한민국 대통령의 외교정책과 그 인정, 그리고 양국관계 발전을 연구해온 전문가들의 의견과 논평, 그리고 향후 한·중 관계 발전에 대한 전망 등을 소개한다. 우즈베키스탄 공화국.

**Abstract.** This article examines the development of diplomatic relations and cooperation between Uzbekistan and Korea. The foreign policy of the presidents of the Republic of Korea after the independence of the Republic of Uzbekistan and its recognition, as well as the opinions and comments of experts who have studied the development of bilateral relations, and their predictions about the future development of the Republic of Uzbekistan.

**Kalit so`zlar:** ikki tomonlama munosabatlar, islohotlar, tashqi siyosat, "Koreya to`lqini" "Shimol siyosati", strategik sheriklik, xalqaro anjumanlar.

**핵심어 :** 양국관계, 개혁, 외교정책, '한류', '북북정책', 전략적 동반자 관, 국제회의

**Key words:** bilateral relations, reforms, foreign policy, "Korean wave", "Northern policy", strategic partnership, international conferences



Koreya Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligini eng birinchilardan bo‘lib, ya’ni 1991-yilning oxirlarida tan oldi, 1992-yil 29-yanvardan boshlab O‘zbekiston va Koreya davlatlari o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. 2012-yil oktabr oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan forumda Inxa instituti rektori Pak Chun Be bildirgan fikrlar har ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning tarixiy ildizlari moziyga borib taqalishidan darak beradi: “O‘zbekiston bizni xalqaro munosabatlarda ko‘p jihatdan qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Buyuk Ipak yo‘lining muhim chorrahasida joylashgan bu mamlakat Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy aloqalarning rivojiga katta hissa qo‘shtan Samarcanddagi tarixiy devor suratlarida yaqqol ko‘rinib turibdi. Bu freskalardan kelib chiqadigan bo‘lsak, bizning o‘tmish ajdodlarimiz bu yerga 1400 yil oldin ham kelishgan, demakki, ikki o‘rtada muhim aloqalar mavjud bo‘lgan”.

O‘zbekiston-Koreya o‘rtasidagi munosabatlar siyosat, ta’lim, madaniyat, sanoat va iqtisodiyot kabi sohalarda rivojlangan va hali hamon rivojlanmoqda. So`ngi 30 yillik tarixga nazar soladigan bo`lsak , har ikkala davlat tomonlari siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha qator yutuqlarga erishdilar. Ayniqsa, o‘tgan yillar davomida madaniy-gumanitar hamkorlik yo‘nalishida samarali ishlar olib borildi. Buni Xanguk xorijiy tillar universiteti Markaziy Osiyo tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi Yun Si Naning mazkur forumda bildirgan fikrlari ham tasdiqlaydi. O‘zbekistonda har ikki davlatlar o‘rtasida ta’lim sohasidagi hamkorlik yuqori darajaga erishdi. Xususan, ta’lim sohasida Toshkentda 1992-yildan boshlab Koreya ta’lim markazi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. O‘zbekistonning 7 ta oliv ta’lim muassasasi hamda 48 ta maktab va litseylarida, Sejong maktabida koreys tili o‘rgatilmoqda. O‘zbekistonda Koreyaning Inxa, Puchon, Yoju universitetlari filiallari hamda Farg‘onada Koreya xalqaro universiteti faoliyat yuritib kelmoqda. 2021-yil 1-fevralda esa Aju universitetining filiali ochildi. Bu ta’lim sohasidagi islohotlar o‘zbekistonlik yoshlar uchun samarali o‘zgarish bo`ldi desak adashmagan bo`lamiz.

Hattoki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yilni «O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi o‘zaro almashinuvlar yili» deb e’lon qilishni taklif qildilar. So‘nggi 5 yil ichida barcha sohalar qatori ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining amaliy natijalarini kutmoqda. Bu sharqshunos-koreyashunos olimlar zimmasiga ham yuksak mas’uliyat yuklaydi, albatta. Bu ikki davlat o‘rtasidagi so`ngi 10 yillik munosabatlarning rivojlanishini o‘rganib chiqib, aloqalar va munosabatlardagi haqiqiy o’sib borayotgandinamikasini, ko`plab sohalar hamkorligida ko`rishimiz mumkin.



O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash maqsadida 2006 yilda mamlakatlarimiz o‘rtasida Strategik sheriklik to‘g‘risidagi Qo‘shma deklaratsiya imzolandi. 2014 yilda esa Strategik sheriklikni yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiya imzolandi. Ushbu hujjat respublikalar o‘rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy hamda madaniy-gumanitar sohalarda munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish imkonini yaratdi. Ikki mamlakatning siyosiy munosabatlari haqida so‘z ketganda, avvalo, davlat rahbarlari o‘rtasidagi samimiyo do‘stlikni ta’kidlash kerak. Bu do‘stlik Janubiy Koreya Prezidenti Li Myon Bak Seul meri bo‘lgan yillari boshlangan. 2008 yilda Li Myon Bak prezident saylovida g‘alaba qozonib, davlat rahbari lavozimini egallagach, inauguratsiya marosimiga oliv faxriy mehmon sifatida O‘zbekiston rahbarini taklif etdi. 2009 yilning may oyida O‘zbekiston va Janubiy Koreya rahbarlari Toshkentda uchrashdilar. Davlat rahabarlarining har bir uchrashuvi ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlab bordi. So‘nggi to‘rt yil davomida esa O‘zbekiston-Janubiy Koreya munosabatlari ikki davlat rahbarlari o‘rtasidagi boy va sermazmun siyosiy muloqotga asoslangan holda sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

2017 va 2019 yillarda amalga oshirilgan o‘zaro davlat tashriflari natijasida imzolangan hukumatlararo bitimlar va tijorat shartnomalarining umumiyligi miqdori 22 milliard dollarni tashkil etdi. 2019 yilda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar “alohida strategik sheriklik” darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan 2020 yil 30 oktyabr kuni Seul shahrida videoanjuman shaklida bo‘lib o‘tgan Shimoliy iqtisodiy hamkorlik ikkinchi xalqaro forumida o‘z nutqi bilan ishtiroy etdi. Davlatimiz rahbari nutqida jahondagi mushkul vaziyat va global inqiroz sharoitida aynan shunday ko‘p tomonlama muloqot yangi xatar va tahdidlarga samarali qarshi turish uchun imkoniyat yaratib, mamlakatlarimiz barqarorligi, farovonligi va izchil taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qilishini alohida ta’kidlab o‘tdi. Shu munosabat bilan Shavkat Mirziyoyev xalqaro siyosatning eng muhim jihatlari va mintaqaviy hamkorlik istiqbollariga to‘xtalib o‘tdi.

Muhim yo‘nalishlarda, shu jumladan, Koreya kompaniyalari bilan birgalikda tashkil etilayotgan farmatsevtika klasteri negizida samarali vaksina va zardoblar, kasalliklarni tez va aniq tashxislash tizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha birgalikdagi ishlarni davom ettirish taklifi bildirildi. Bundan tashqari, zamonaviy laboratoriylar yaratish va chegaralardagi sanitariya nazorati punktlarini modernizatsiya qilish, yuqori malakali vrachlarni tayyorlash, tibbiy chiqindilarni utilizatsiya qilish



korxonalarini tashkil etish, mintaqada epidemiologik vaziyatni monitoring qilish va barvaqt prognozlashtirishning integratsiyalashgan tizimini joriy etish muhimligi qayd etildi. Davlatimiz rahbari Koreya Respublikasini mamlakatimizga raqamli va “yashil” texnologiyalarni keltirishda asosiy hamkorlardan biri deb bilishini alohida ta’kidladi.

2021 yil 28 yanvar kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In bilan videoanjuman shaklida uchrashuv o‘tkazdi. Davlat rahbarlari ikki tomonlama munosabatlar borasida alohida strategik sheriklikni yanada mustahkamlash va hamkorlikni har tomonlama kengaytirishni ta’kidladilar. Oliy, kasb-hunar va maktabgacha ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniy meros ob’yektlarini raqamlashtirish va restavratsiya qilish sohalaridagi hamkorlikning joriy va istiqbolli dasturlari ko‘rib chiqildi. Joriy yilda janubiy koreyalik hamkorlar ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida jami 400 million dollargacha investitsiyalarni o‘zlashtirilishi ma’lum qilindi. Bundan tashqari, ikki davlat hamkorligining yangi yo‘nalishi sifatida yuqori texnologik sohalar, shu jumladan energetika, neft-gaz, kimyo va neft-kimyo, farmatsevtika, qayta ishslash sanoati, qishloq xo‘jaligi, infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport va logistika, turizm va ko‘plab boshqa tarmoqlarda jami qiymati 3,4 milliard AQSh dollardan ziyod bo‘lgan 55 ta yangi loyiha amalga oshiriladi.

Bugungi kunga qadar ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 14 raund siyosiy maslahatlashuvlar bo‘lib o‘tdi. 2018 yil 17 – 18 aprel kunlari Koreya Respublikasi tashqi ishlar vaziri Kan Gyon Xva O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan keldi. 2007 yil noyabr oyidan buyon “Koreya Respublikasi – Markaziy Osiyo” yillik hamkorlik forumi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. 2020 yil noyabr oyida Tashqi ishlar vaziri A. Kamilov Forumning 13-yig‘ilishida ishtirok etdi.

Shuni aytib o‘tish joizki, o‘zbekistonlik yoshlarning iqtisodiy yutuqlariga qiziqlishi kundan kunga ortib borayotgan talabalar, magistrantlar, tadqiqotchilar hamda soha mutaxassislarini fanning so‘nggi yutuqlaridan bahramand qilish, ta’lim sohasida qo‘lga kiritilgan ilmiy-tadqiqot ishlar natijalari bilan o‘rtoqlashish, talaba-yoshlarga yetarli bilim berish bilan birga Koreya madaniyati, san’ati va ilmiy doiralarda ham hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishga hissa qo‘sadi. Albatta, bu yutuqlar bir kunda qo‘lga kiritilgani yo‘q, ular ikki davlatning ishonchi, hamkorligi va sa’y-harakatlari samarasidir. So‘nggi 30 yil ichida bir-birini qo’llab-quvvatlash orqali kelgusida Koreya va O‘zbekiston o‘rtasida diplomatik munosabatlar bo‘lishi kutilmoqda. O‘zaro manfaatli sharoitlarda mustahkamlanadi va rivojlanadi.



### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Koreya: Markaziy Osiyo omili. EVROSIYA INTEGRASI: iqtisod, qonun, siyosat. 2020;14(4):70-87. <https://doi.org/10.22394/2073-2929-2020-4-70-87> 237 Elchi Vitaliy F
2. Janubiy Koreyadan kelgan mutaxassis Sog‘liqni saqlash vazirligida ish boshladi // <https://www.gazeta.uz/ru/2020/03/30/ekspert/>
3. Kornelius Graubner. O‘zbekiston-Janubiy Koreya: Muvaffaqiyatli ittifoq yoki xavfli tikish? // <https://russian.eurasianet.org> // 2012 yil 8 iyun
4. Elchi Vitaliy Fen: O‘zbek va koreys xalqi qiyin paytlarda bir-birlarini doimo qo‘llab-quvvatlagan // [https://dunyo.info/ru/site/inner/posol\\_vitaliy\\_fen\\_uzbekskiy\\_i\\_koreyskiy\\_narodi\\_vsegda\\_pudderzhivali\\_drug\\_druga\\_v\\_trudnie\\_vremenya-jpt](https://dunyo.info/ru/site/inner/posol_vitaliy_fen_uzbekskiy_i_koreyskiy_narodi_vsegda_pudderzhivali_drug_druga_v_trudnie_vremenya-jpt)
5. O‘zbekiston – Janubiy Koreya: strategik munosabatlarning yangi bosqichi hamkorlik // <https://mineconomy.uz/ru/info/1926>
6. Janubiy Koreya O‘zbekistonga 1,8 milliard dollar sarmoya kiritmoqda // <https://www.asiaplustj.info/ru/news/tajikistan/20060329/yuzhnaya-koreya-investiruet-v-uzbekistan-18-billion-dollarov>
7. “O‘zbekiston-koreya:o‘zaro hamkorlikning bugungi kuni va istiqbollari” xalqaro ilmiy maqolalar to`plami